

Ko`hna sahrodagi yangi dunyo – Buxoro viloyatida ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo`llari

Xayrullayeva Nilufarbegim Nematilloqizi

**Ijtimoiy –iqtisodiy fakultet, Turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish mutaxassisligi magistri
Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası professori, i. f.d. B.N. Navro`z-zoda ilmiy rahbarligi asosida**

O`zbekistonda xorijiy mehmonlarni jalb qilishda ko`plab resurslar (hayvonot va o`simliklar olamiga boy bo`lgan cho`l va qo`riqxonalar, tog` cho`qqilari va daryolar, 300 dan ortiq shifobaxsh mineral suv manbalari) - turizmni faol ravishda rivojlantirish uchun ahamiyatlidir.

Yurtimizning o`ziga xos ekologik potensialidan yetarli darajada foydalanish, ko`plab ekoturistik manzilgohlarning imkoniyatlarini amalda qo`llash va yoshlarda ekologik turizm madaniyatini shakllantirish, tabiatga bo`lgan muhabbatni uyg`otish bo`yicha chora – tadbirlarni ishlab chiqish hozirgi kun talablarining debochasidir.

«O`zbekistonning dam olish va salomatlikni tiklash imkoniyatlari, — degan edilar Prezidentimiz Islom Karimov - sayohat marshrutlarining xilma – xil turlarini tashkil etishga va sayohatchilarni butun yil davomida qabul qilishga sharoit yaratadi». 2006-yil 17-aprelda «O`zbekiston Respublikasida 2006—2010-yillarda xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» qabul qilingan prezidentimiz qarori ko`plab imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ekspertlar ma`lumotiga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20% qamrab olgan, o`sish sur`ati esa umumiy turizm industriyasining o`sish sur`atidan 2-3 marotaba yuqori ekan.

Xususan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qildi.

Albatta turizmning shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog`liqdir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo`lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi. Turizm respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo`jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o`zining munosib o`rniga ega bo`lishiga erishishimiz asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Shu qatorda, o`zining betakror tabiati, noyob o`simliklari va hayvonlari bilan sayyohlarni o`ziga jalb qilib kelayotgan “Jayron” ekomarkazi ilmiy-ishlab chiqarish davlat tashkiloti bo`lib, kamayib borayotgan jonivorlar turlarini ko`paytirish maqsadida 1976 - yil may oyida tashkil etilgan. Ekomarkaz O`zbekiston respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish” davlat qo`mitasiga qarashli va uning himoyasida.

Hozir ekomarkaz egallagan 16522 gektarlik maydon avval cho`ldan iborat bo`lib, o`simlik deyarli o`smagan. Bugungi kunda bu hududda “Uch ko`l” majmuasi bunyod etilgan. Ko`llardan eng kattasi “Go`zal” deb nomlanadi, ikkinchi ko`l – «O`rdakli», uchinchi – “Kichik sho`r ko`l” deb atalib kelinmoqda (sababi – yozda suv bug`lanib ketib, tuz bilan qoplanadi). Bu ko`llarda laqqa, karp va do`ng

peshona baliq turlarini uchratishingiz va ko'l atrofidagi xushmanzara joylarni tomosha qilishingiz mumkin.

“Jayron” ekomarkazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- Noyobturdagijonivorlarbiologiyasini o'rganishvaularniko'paytirish;
- Hayvonotbog'larivaboshqazoologikkolleksiyalaruchunnoyobturdagijonivorlar nietkazibberish;
- Tabiiypopulyastianito'ldirishmaqsadidaajratilganjonivornitabiatgaqo'yiby uborish;
- Ilmiytadqiqot;
- Ekoturizm;
- Ekologikbilimolish, malakaoshirishvatalabalaramaliyoti;
- Biotexniktadbirlarvamuhofaza.

Ekomarkazharyili 2500 dan 4000 gachasayyohlarniqabulqiladi. Bu birtomondantabiatnimuhofazaqilishg'oyalarinitarg'ibotqilishgaxizmatqilsa, boshqatomondanmarkazgaqo'shimchadaromadkeltirib, uningfaoliyatinekengaytirishgayordamberadi.

Ekomarkazningrivojlanishhistiqbollaridaekoturizmmuhimyo'nalishhisoblanib, tashrifmarkazi, ekologikmarshrutlarvaaxborotmaydonlaribarpoetish, infrastrukturayaratishrejalashtirilgan.

Aynidamda “Studiosus” fondiko'magidaekomarkazbarchaturistikinfrastrukturaniyangilashbilan ham shug'ullanmoqda. 2010 - yildayoqturistlargayangimarshrutlar, qiziqarliexkursiyalarvayuqoridarajalixizmatlaklifetildi.

“Jayron” ekomarkazio'ziningekoturistikrekreationsresurslarivaxizmatlaribilanajralibturadi. Ekomarkazdatabiatqo'ynidaexkursiyaqilishbilanbirqatordaturlixilnoyobo'simlikvah ayvonlarnikuzatishimkoniyatiyaratilgan. Ilmiytadqiqotmaqsadidatashrifbuyuruvchisayyohlaro'z bilimlariniamaliyotdaoshirish lari, hayvonlarparvarishinitomoshaqilishlarimumkin.

Buxorohududidaekoturizmnianadarivojlantirish, sayyohlaroqiminikengaytirshuchunxizmatko'rsatishmadaniyativasifatigae'toborniqa ratishekomarkazoldidaqo'rganmaqsadlaridanbiridir.

Ekomarkaz – tashrifbuyuruvchisayyohlarniyildan-yilgahayratlantiribkelmoqda. Buningnatijasio'laroqsayyohlaroqimi ham ortibbormoqda. 2011 - yildaekomarkazgatashrifbuyuruvchisayyohlarsoni 1200 nafarbo'lganbo'lsa, hozirgikungakelibbunatija 20-30%ga oshdi.

2008-2015 – yildaTabiatnimuhofazaqilishdavlatqo'mitasi, Davlatbiologiknazoratiboshqahomiytashkilotlarvajamg'armalarko'magidaekoturistikmarkazqurilishirejalashtirilganedi. Shumunosabatbilan “Jayron” ekomarkazihududida, tabiatgaputuryetkazibqo'ymaslikuchunbarchaehtiyotchoralariniko'rganholda, milliybog' tashkiletildi. Dunyoningmashhurmilliybog'larikabixorijlikvayurtimizmehmonlaribuboqqakelib, Buxoroo'lkasitabiatiningbarchago'zalligidanbahramandbo'laolishlariuchunekoturist

iksafarlartashkiletilishihamko`zdatutiladi.Ekoturizmasosanekomarkazgaqo`shilgany
angihududdayo`lgaqo`yiladi.

BundantashqaripiyodayokiavtomobildakeladiganturistlarEkomarkazhududidagiko`ll
arningsohiligacha borishigaimkonberilishimumkin.

Aytib o`tganimizdek, yurtimizda hali to`liq o`rganilmagan tabiiy va mukammal
tabiat ko`p. Buning bir misoli “Jayron” ekomarkazi bo`lib hisoblanadi. O`zining boy
ekologik salohiyati va betakror flora-fauna olami bilan dunyo e`tirofida bo`lib
kelgan markaz hududida loyihalashtirilgan Milliy bog` infrastrukturasini yaxshilash
orqali mazmunli hordiq va sayohat tashkillashtirish hamda “Ko`hna sahrodagi yangi
dunyo yoxud tabiat tuhfası” ekoturistik dasturini yaratish borasida bir necha
takliflarimni berib o`tmoqchiman:

- Ekomarkaz faoliyatining bir bo`lagi bo`lgan ekoturizmni rivojlantirish borasida,
hudud tashqarisida Amu-Buxoro kanali yaqinidagi ekomarkaz tasarrufida bo`lgan
bino va qarovsiz yerlarda “Doira shaklidagi yurtalar”ni yaratish. Shu hududni
“Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfası markazi” sifatida faoliyat
yuritishini ta`minlash;
- “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfası markazi” hududida tabiat
bilan hamohanglikni bog`lagan holda, sun`iy ko`l yaratish. Xohlovchi
sayyohlarga baliq ovi uchun imkoniyatlar yaratib berish;
- “Milliy bog`” va “Jayron”ekomarkazi hududining maxsus volyer bilan ajratilgan
hududining turli yo`nalishiga boruvchi maxsus yo`lakchalar,shu yo`lakchalar
yo`nalishini ko`rsatuvchi belgilar va har bir kichik volyerning boshlanishida shu
volyerda saqlanuvchi hayvonlar tarixi va yashash tarzi haqida qisqacha
ma`lumotlar doskasini yaratish;
- Sayohat davomiyligi va sifatini oshirish maqsadida “Riksha” ko`rinishidagi 12
kishiga mo`ljallangan transport orqali sayohatni amalga oshirish;
- Sayyohlarda “Jayron” ekomarkazi va “Milliy bog” haqidagi tasavvurlarni
boyitish maqsadida yo`nalish kartalari va ekomarkaz flora-faunasi haqidagi
bukletlarni sayohat oldidan tarqatish joiz bo`ladi.

Buning natijasida:

- Tabiiy mo`jizakor dunyoning bir bo`lagi bo`lgan “Jayron” ekomarkazi
ekoturistik erkin hudud sifatida dunyoga tanilib, hududga tashrif buyuruvchi
sayyohlar oqimi 40-50% oshadi;
- Hududda ichki va kirish turizmi faoliyati rivojlanib, turistik bozorda o`z
mavqeiga ega istiqbolli ekoturistik hudud sifatida kirib boradi;
- O`zbekistonning cho`l zonasida joylashgan yagona ekoturistik “Milliy
bog`”da ekoturizmni rivojlantirish orqali hudud iqtisodiy salohiyati
2barobarga oshadi;
- Ekomarkaz yillik xarajatlari 70 mln so`m, daromadi esa 95-100 mln so`mni
tashkil etadi. Agar dastur ishga tushurilsa, daromadlar xarajatlardan 4.5 marta
yuqori bo`ladi va olingan foyda hayvonlar parvarishiga sarflanib, hozirgi
kunga global muammoga aylangan ekologik yo`qotishlar oldi olinadi;

- Ekologik madaniyat va ekologik ong muhitida ulg`aygan yosh avlod tabiatni asrash uchun izlanishlar olib borib, uning har bir yaprog`ini asrash uchun ham bosh qotiradi;
- Hududda yaratilgan “Ko`hna sahrodagi yangi dunyo yohud tabiat tuhfası markazi” va unda ko`rsatiladigan milliy turistik xizmatlar orqali ming yillik tarixga ega an`analarimiz saqlanib qolinadi;

Har bir yurt o`z tabiati bilan, har bir xalq esa o`z an`analari bilan farq qiladi. Shuningdek, biz yaratmoqchi bo`lgan sahrodagi yangi dunyo o`zining mo`jizakor sayohatlari, betakror va yagona tabiati bilan e`tirof etiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006-yil 17-apreldagi «O`zbekiston Respublikasida 2006—2010-yillarda xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» qarori.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 - yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014- yilga mo`ljllangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`lanishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. “Xalq so`zi”, 2014- yil 18- yanvar.
4. WTO statistic ma`lumotlari, 2014
5. <http://www.ecocenter.uz/uz>.